

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MADANIYAT VAZIRLIGI
O'ZBEKISTON DAVLAT SAN'AT VA MADANIYAT
INSTITUTINING FARG'ONA MINTAQAVIY FILIALI

PEDAGOGIKADA
ILMIY
IZLANISHLAR

ISSN 2992-9237

ILMIY JURNAL

2-TO'PLAM 1-SON
MART 2024

QQ'QON

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MADANIYAT VAZIRLIGI

O‘ZBEKISTON DAVLAT SAN’AT VA MADANIYAT INSTITUTINING
FARG‘ONA MINTAQAVIY FILIALI

PEDAGOGIKADA ILMIY IZLANISHLAR

ISSN 2992-9237

ILMIY JURNAL

VOLUME 2 ISSUE 1 / MART 2024

QO‘QON

Editor in chief

Gapurov Mirmuxsin Kamoldinovich

Associated Professor

Executive Secretary

Turgunbaev Rashid Muxtorovich

Corrector

Asqarova Munajat Husanovna

Editorial board

Z.Kholmatova

Namangan State University, Doctor of

Philosophy in Pedagogical Sciences

I.Kirgizov

Candidate of Pedagogical Sciences, Fergana

State University

M.Bashmanov

Fergana Regional Branch of Uzbekistan State

Institute of Arts and Culture, Candidate of

Pedagogical Sciences, Associate Professor

I.Habibjonov

Fergana Regional Branch of Uzbekistan State

Institute of Arts and Culture, Doctor of

Philosophy in Philology (PhD)

B.Shamsiddinov

Kokand State Pedagogical Institute, Doctor of

Philosophy (PhD)

E.Qabilova

Kokand State Pedagogical Institute, Associate

Professor

M.Umarova

Kokand State Pedagogical Institute, Associate

Professor

A.Ziyayev

Kokand State Pedagogical Institute, Associate

Professor

M.Khushnazarova

Kokand State Pedagogical Institute, Associate

Professor

A.Sattarov

Fergana regional branch of Uzbekistan State

Institute of Arts and Culture

B.Kadirov

Kokand State Pedagogical Institute, Doctor of

Philosophy (PhD)

Z.Ernazarov

Kokand State Pedagogical Institute, Doctor of

Biological Sciences (PhD)

Bosh muharrir

G'apurov Mirmuxsin Kamoldinovich

Dotsent

Mas'ul kotib

Turg'unboev Rashid Muxtorovich

Musahhix

Asqarova Munajat Husanovna

Tahririyat

Z.Xolmatova

Qo'qon davlat pedagogika instituti,

Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori

I.Kirgizov

Farg'ona davlat universiteti, Pedagogika

fanlari nomzodi

X.Usmonova

O'zbekiston davlat san'at va madaniyat

instituti Farg'ona viloyat filiali, Pedagogika

fanlari nomzodi, Dotsent

I.Habibjonov

O'zbekiston davlat san'at va madaniyat

instituti Farg'ona viloyat filiali, Filologiya

fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

B.Shamsiddinov

Qo'qon davlat pedagogika instituti, Falsafa

fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

E.Qobilova

Qo'qon davlat pedagogika instituti,

Dotsent

M.Umarova

Qo'qon davlat pedagogika instituti,

Dotsent

A.Ziyayev

Qo'qon davlat pedagogika instituti,

Dotsent

M.Xushnazarova

Qo'qon davlat pedagogika instituti,

Dotsent

A.Sattarov

O'zbekiston davlat san'at va madaniyat

institutining Farg'ona mintaqaviy filiali

B.Qodirov

Qo'qon davlat pedagogika instituti, Falsafa

fanlari bo'yicha falsafa doktori

Z.Ernazarov

Qo'qon davlat pedagogika instituti, Biologiya

fanlari bo'yicha falsafa doktori

Ta'sischi

O'zbekiston davlat san'at va madaniyat

institutining Farg'ona mintaqaviy filiali

TABLE OF CONTENTS / MUNDARIJA

1.	Nozimaxon Ahmedova, M.M.Qurbonova MUSIQA MAKTABLARIDA DUTOR SINFI UCHUN YARATILGAN O‘QUV ADABIYOTLAR TAHLILI	5
2.	Barhayotjon Sobirjonovich Qodirov YANGI O‘ZBEKISTONDA TA‘LIM KLASTERINING NAZARIY ASOSLARI	9
3.	Azizbek Taslimboyev, Umidaxon Boltaboyeva BARKAMOL AVLODNI AQLIY, AXLOQIY, JISMONIY VA ESTETIK TARBIYALASHDA BOLALAR O‘YINLARINING AHAMIYATI	13
4.	Sultonov Dostonbek, R.Zununov BOSHLANG‘ICH SINFLARDA MUSIQA FANINI O‘QITISH METODIKASI	17
5.	Roziyabonu Abdusalom kizi Khasanboyeva, Otabek Rustambek oglu Anvarov THE HEART OF A WORK OF ART IS THE ENVIRONMENT	21
6.	E.Qobilova MUSIQA ONG VA HISLAR O‘RTASIDAGI VOSITACHIDIR	28
7.	Sug‘diyona Nodirbek qizi Valijonovna, R.Utaganov KICHIK YOSHDAGI BOLALAR BILAN RAQS MASHG‘ULOTLARI OLIB BORISHNING ENG MUHIM TARTIB VA TALABLARI	32

KICHIK YOSHDAGI BOLALAR BILAN RAQS MASHG‘ULOTLARI OLIB BORISHNING ENG MUHIM TARTIB VA TALABLARI

Sug‘diyona Nodirbek qizi Valijonovna

Ilmiy rahbar R.Utaganov

O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat institutining Farg‘ona mintaqaviy filiali

Annotatsiya: O‘sib kelayotgan yosh avlodning ham ma’nan va jismonan kamol topishlarida nafaqat san’at sohasining, qolaversa, raqsning o‘rni beqiyosdir. Ularning kelajakda professional pedagog hamda ijrochi bo‘lib yetishlarining zamirida, ilk bosqichlardagi olib borilgan dars mashg‘ulotlari muhim ahamiyat kasb etadi. Shunday ekan, ushbu maqolada bolalarning raqs sohasi yordamida ijodiy qobiliyatlarini namoyon etishlariga ko‘mak yaratish maqsadida, pedogoglar uchun samarali usullar hamda tavsiyalar keltirildi.

Kalit so‘zlar: raqs, bolalar, san’at, pedagog, musiqa, jarayon, harakat, ijrochi, mashg‘ulot

THE MOST IMPORTANT PROCEDURES AND REQUIREMENTS FOR CONDUCTING DANCE LESSONS WITH YOUNG CHILDREN

Sugdiyona Nodirbek kizi Valijonova

Scientific supervisor R.Utaganov

Fergana regional branch of Uzbekistan State Institute of Arts and Culture

Abstract: Not only art, but also dance plays an incomparable role in the spiritual and physical development of the young generation. In the basis of their becoming professional pedagogues and performers in the future, the lessons conducted in the first stages are of great importance. Therefore, this article presents effective methods and recommendations for pedagogues in order to help children show their creative abilities with the help of dance.

Keywords: dance, children, art, pedagogue, music, process, movement, performer, training

Raqs san’atini o‘sib kelayotgan yosh avlodga o‘rgatish uslubiyoti o‘ziga xos talab hamda majburiyatlarga ega. Bu borada pedagoglardan nafaqat sohaga oid chuqur bilim, qolaversa, psixalogik ko‘nikmalar ham talab etiladi. Kichik yoshdagi bolalar bilan dars mashg‘ulotlarini olib borishda sabr-matonat va ehtiyotkorlik juda ham muhim talablardan biridir. Chunki, bunday yoshda bolalarning (5-8 yosh oralig‘ida) murakkab raqs mashg‘ulotlarini o‘zlashtirishida qiyinchilik yuzaga kelishi muqarrardir. Dars

mashgʻulotlaridagi hatto oddiy harakatlar, qolaversa, yumshamagan mushaklar jismonan tayyor boʻlmagan ijrochida jarohat yuzaga keltiradi. Shuning uchun, oʻrgatish jarayonini boshlashdan avval, pedagog avvalo, oʻquvchilarni darsga jalb etishi va mushaklarni qizdiruvchi harakatlarni koʻrsatib berishi zarur. Biroq, bu jarayonda oʻquvchilarga ogʻir mashqlarni yuklash ham talab etilmaydi, aks holda darsning kirish qismidayoq charchab qolishlari yoki mashgʻulotlarga boʻlgan qiziqishning soʻnishi mumkin. Turli xil qiziqarli oʻyinlar, psixalogik fikr jamlash mashqlari hamda sakrash, yugurish kabilar esa ularning dars jarayoniga kutilgandan koʻra faol qatnashishlari va mashqlarni oʻzlashtirishda muvaffaqiyat qozonishlariga imkon yaratadi. Yana shuni aytib oʻtish joizki, bolaning mashgʻulot davomida toʻgʻri nafas olishiga eʼtibor berish lozim. Bu bolaning ichki organlari faoliyati bilan bogʻliq boʻladi.

Dars jarayonlari toʻliq boshlanganidan soʻng, bolalarga raqs mashgʻulotlarini oʻzlashtirishiga ohistalik bilan yordam berish zarur. Ularning kelgusida murakkab raqs elementlarini qiyinchiliksiz bajarishlari va bu sohada koʻplab yutuqlarga erishishi uchun daslabki davrlarda oson va qiziqarli mashqlarni puxta oʻrgatish lozim. Mashgʻulot davomida qoʻllarda qarsak chalish, (buni turli xil koʻrinishlarda bajarish mumkin: ikki qoʻl yuqoriga, pastga, yonga, oldiga va orqaga kabi) tizza mashqlari, oʻng tarafga va chap tarafga burilish, muvozanatni bir oyoqdan boshqa oyoqqa navbat va navbat oʻtkazish hamda yordamchi atributlar bilan mashgʻulotlarni olib borish, bolalarning qiziqarli dars jarayoni ishtirokchisi boʻlishiga zamin yaratadi. Yana bir eng muhim omillardan biri shuki, mashqlarni bola ongiga va yosh qatlamiga toʻgʻri keluvchi musiqalar bilan olib borish kerak. Chunki, raqs va musiqa bir-biriga chambarchas bogʻliqdir. Uning raqsqa hamohangligi shunchaki ritm yoki harakatlar sanogʻi uchun emas. Musiqa har bir raqsning eng asosiy mazmun va xarakterini ifodalovchi muhim vositadir. Shuningdek, u raqsning yoʻnalishi va xarakterini ham ifodalaydi. Bunda musiqaning tabiatiga ham eʼtibor qaratilishi lozim (Masalan, yengil ohangga sekin yurish, quvnoqqa esa tezroq). Ushbu jarayonlarda oʻz-oʻzidan bolada har bir raqsda talab etiluvchi "raqs xarakteri" shakllanish jarayoni vujudga keladi. Yana bolalarning musiqiy sulhiga va har bir harakatning musiqa ritmiga mos tarzda bajarishlariga ham eʼtibor berish kerak. Agarda, bola musiqani tinglamasa, bajarayotgan harakatlari musiqa bilan uygʻunlashmaydi. Professional raqsdagi eng asosiy shartlarda biri esa, ijrochida musiqani his etish qobiliyatining yuqori darajada namoyon etilishidir. Shuning uchun, bolalarda musiqa hamda raqs harakatlari uygʻunligini ilk darvlardayoq shakllantirish maqsadga muvofiq. Qolaversa, pedagogdan ijrochining har bir musiqa ritmiga, maʼnosiga va ohanggiga mos tarzda ichki kechinmalarini toʻlaqonli yuzaga keltirish uchun koʻmaklashish talab etiladi. Bu jarayon albatta, raqs mazmunini oʻquvchiga yetarli darajada tushuntirib berish orqali amalga oshiriladi. Yaʼni har bir professional raqs ayni bir mavzuga yoʻnaltiriladi va

o'ziga xos mazmun-mohiyatga ega bo'ladi. Ijrochi esa aynan mana shu mohiyatni, harakatlar orqali yuzda qanday his-tuyg'ular aks ettirish lozim ekanligini anglamay turib asarni professional tarzda tomoshabinga yetkazib bera olamaydi. Musiqiy asarni to'liq tushinish, his qilish, tinglash va uni tahlil qilish ijrochining muvaffaqiyatli tarzda ijro etilishida muhim ahamiyat kasb etadi. Bu orqali o'quvchi nafaqat o'z ijrosini anglaydi, balki dunyoqarashi hamda aqliy salohiyatini rivojlantiradi. Shuning uchun, o'qitishning ilk bosqichlaridayoq bolalarda musiqiy sulhni rivojlantirish pedogog oldidagi muhim vazifalardan biridir.

Yana shuni aytib o'tish joizki, kichik yoshdagi bolalar bilan mashg'ulotlarni haftada bir-ikki marotaba o'tkazish yetarlidir. Shuningdek, dars jarayoni olib boriladigan xonalar ham muhim talablarga mos bo'lishi kerak. Masalan, xonalar yorug', shamollatilgan, polda gilam yoki gilamsiz va davorlarda maxsus oynalar bo'lishi kerak. Bunday oynalar ijrochi uchun o'zini kuzatish, xatolari ustida ishlash va tahlil qilishi uchun zamin yaratadi.

Muntazam ravishda raqs sohasida faoliyat olib borgan insonning ma'naviy va marifiy olami yuksaladi. Uning fikrlash, diqqat qilish, xotira hamda aqliy salohiyati rivojlanishiga yordam beradi. Shuningdek, bolalarda axloqiy me'yorlarning mujassamlashuviga ham ko'mak beradi. Ularda rahm-shafqat, nafrat, yaxshilik, yomonlik, qo'rqqoqlik va mardlik kabi sifatlarni farqlay olish qobiliyatining shakllanishiga turtki bo'ladi. Raqs bilan tanishgan insonning estetik didi yuqori darajada faollashadi va ijodiy tasavvuri yuksaladi.

Raqs darslari nafaqat bolalarga, balki turli yoshdagi insonlarga ham katta ta'sir ko'rsatadi. Quyida esa eng muhim afzalliklardan ba'zilarini keltirib o'tamiz:

O'ziga bo'lgan ishonch va ijtimoiy ko'nikmalarni oshiradi;

Jismoniy salomatlikni yaxshilaydi va ortiqcha vazndan halos etadi;

Qo'l-ko'z koordinatsiyasining faoliyatini yaxshilaydi;

Yaxshi xulq-atvor, xushmuomalalik va odobni rag'batlantiradi,

Xotiraga, diqqatni jamlashga va miyaning rivojlanishiga yordam beradi. Shunday qilib, raqs san'ati yosh avlodning har tomonlama kamol topishi va rivojlanishing muhim manbalaridan biridir. Insonning ma'naviy dunyosini boyitadi, shaxs sifatida rivojlanishiga ko'mak beradi. Chunki, bebaho san'at turi bo'lmish – raqs, tana va ruh uchun haqiqiy bayramdir!

Foydalanilgan adabiyotlar

1. <https://minikar.ru/uz/its-interesting/tancevalnoe-tvorchestvo-v-detskom-sadu-master-klass-tancevalnaya/>“Bolalar bog'chasida raqs ijodkorligi. Mahorat darsi “Raqs faoliyati maktabgacha yoshdagi bolalarni badiiy va estetik rivojlantirish vositasi sifatida”.

2. Avdeyeva L.A. O‘zbek milliy raqsi tarixidan - T.: M.Turg‘unboyeva nomidagi "O‘zbekraqs" milliy raqs birlashmasi, 2001.

3. “Globallashuv jarayonida xoreografiya san’ati sohasida milliylikni saqlash muammolari.” Respublika ilmiy -amaliy anjumani materiallari to‘plami. -Toshkent: Iqtisod - moliya nashriyoti, 2012 y.